



## **BADIIY ADABIYOTDA DARAXT OBRAZINING FUNKSIYALARI**

**Farg'ona davlat  
universiteti  
Filologiya fakulteti 3-  
bosqich talabasi  
Abdusalomova  
Sarvinoz**

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada badiiy adabiyotda daraxt obrazining funksional xususiyatlari qiyosiy va nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Daraxt obrazi insoniyatning eng qadimiy ramzlaridan biri sifatida hayot, o'sish, nasl, vaqt va abadiyat tushunchalarini ifodalashda muhim estetik va falsafiy yuk tashiydi. Tadqiqotda daraxt obrazining mifologik, ramziy, psixologik va ijtimoiy funksiyalari yoritiladi.

**Kalit soʻzlar:** daraxt obrazi, ramziylik, mifologiya, tabiat poetikasi, arxetip, hayot falsafasi, badiiy obraz

### **Kirish**

Badiiy adabiyotda tabiat obrazlari inson ichki dunyosini ifodalashning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ular orasida daraxt obrazi alohida o'rin tutadi. Daraxt nafaqat tabiiy obyekt, balki ko'p qatlamli badiiy ramz sifatida ham talqin qilinadi. U inson hayoti, avlodlar almashinuvi va ma'naviy o'sish jarayonlarini ifodalovchi universal timsoldir.



Daraxt obrazi qadimiy mifologiyadan tortib zamonaviy adabiyotgacha bo'lgan davrda turli shakllarda namoyon bo'lib kelgan. Shu bois uni funksional jihatdan tahlil qilish adabiyotshunoslikda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Daraxt obrazi eng avvalo hayot va o'sish ramzidir. Uning ildizi o'tmishni, tanasi hozirgi holatni, shoxlari esa kelajakni ifodalaydi.<sup>1</sup>Badiiy matnlarda daraxt orqali inson hayotining uzluksizligi va rivojlanish jarayoni tasvirlanadi.Ko'plab asarlarda yosh daraxt — yangi hayot, umid va boshlanishni bildirsa, qurigan daraxt — hayot yakuni yoki ma'naviy so'nishni ifodalaydi.

Daraxt obrazi ko'pincha genealogik ramz sifatida ishlatiladi. "Nasl daraxti" tushunchasi bevosita shu obrazga asoslangan. Adabiyotda daraxt avlodlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni, oilaviy ildizlarni va tarixiy davomiylikni ifodalaydi.Bu funksiya orqali yozuvchilar insonning o'z ildizini unutmasligi, o'tmish bilan bog'liqligini saqlashi kerakligini ta'kidlashadi.Daraxt obrazi inson hayoti va vaqt falsafasini ifodalashda ham muhim rol o'ynaydi. U vaqt o'tishini, o'zgarishlarni va hayotning o'tkinchiligini ramziy tarzda ko'rsatadi.

Ba'zi asarlarda daraxt inson kabi "yashaydi": tug'iladi, o'sadi, qaraydi va nihoyat quriydi. Bu esa hayotning muqarrarligi haqidagi falsafiy qarashlarni kuchaytiradi.

Asqad Muxtorning "Chinor" romanida ham chinor daraxti obraz darajasiga chiqqan.Chinor bu 73 yoshli Ochil buvaga qiyoslanadi.Asar uchun aynan chinor daraxti olinganligi ham bejiz emas,chunki chinor darxti baquvvat,uzoq umr ko'radigan daraxtdir.Ochil buva ham ko'pni ko'rgan,chinordek baquvvat edi.Daraxt qadimdan "hayot daraxti" sifatida

---

<sup>1</sup> Quronov D. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, 2018.



muqaddas ramz hisoblangan. Voqealar rivoji chinor atrofida sodir bo'ladi va uzviy bog'lanadi. Chinor obrazi asarning bosh g'oyasini ifodalashda qo'llangan obrazdir.

Daraxt obrazi, ayniqsa chinor, hayotning uzluksizligini ifodalaydi. "Chinor"da chinor ko'p avlodlar hayotini kuzatib turuvchi ramz sifatida beriladi. U inson umridan ancha uzoq yashab, tarixiy jarayonlarning "jonli guvohi"ga aylanadi. Bu orqali muallif hayotning o'tkinchiligi va tabiatning abadiylikini qarama-qarshi qo'yadi. Chinor esa adabiyotda yanada kuchli milliy va tarixiy ramzga aylangan. Chinor millat xotirasi, tarixiy davomiylik va ma'naviy ildizlarni ifodalaydi.

Ko'plab mifologik tizimlarda daraxt muqaddas timsol hisoblanadi. "Hayot daraxti", "dunyo daraxti" kabi obrazlar koinot tuzilishi va insonning olamdagi o'rnini ifodalaydi. Adabiyotda bu ramzlar orqali ezgulik va yovuzlik, hayot va o'lim o'rtasidagi muvozanat tasvirlanadi.

Nazar Eshonqulning "Taqiq mevasi" romanida daraxt obrazi uchraydi. Unda qahramon ruhiyatida doimiy ogohlik, mas'uliyat kabilarni ifodalab keladi. "Iblis aladab ma'qul qilgan mevani yedirgandan so'ng Yaratgan odamlarga o'z gunohlarini eslatib turishi uchun jannatdagi o'sha daraxtni olib kelib, ularning kulbasi oldiga ekib qo'ygan ekan"<sup>2</sup>. Daraxtning ildizi o'tmish, tanasi bugunni, shoxlari esa kelajakni anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, daraxt obrazi badiiy adabiyotda eng ko'p qatlamli va universal ramzlardan biridir. U hayot, nasl, vaqt, ruhiy holat va falsafiy ma'nolarni ifodalash orqali adabiy matnning estetik va g'oyaviy kuchini oshiradi.

---

<sup>2</sup> Nazar Eshonqul. Taqiqlangan meva. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2000-yillar.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, 2018.
2. Aristotel. Poetika. – Qadimiy manba.
3. Asqad Muxtor. Chinor. – Toshkent, 1980.
4. Nazar Eshonqul. Taqiqlangan meva. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2000-yillar.
5. Lotman Y. Badiiy matn strukturasi.